

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**TA'LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TILLARNI
O'QITISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami**

2024-yil 17-may

**Сборник материалов международной научно-практической
конференции**

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВ
В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ**

17 мая 2024 года

**Collection of materials of the international scientific and practical conference
PROBLEMS AND PROSPECTS OF LANGUAGE TEACHING IN THE
CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION**

May 17, 2024

Guliston – 2024

УДК: 81:37.091.33(08)

ББК: 81+74.00

П 78

Ta’lim transformatsiyasi sharoitida tillarni o‘qitishning muammolari va istiqbollari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Guliston, “Ziyo nashr-matbaa” nashriyoti. 2024-yil. – 550 b.

To ‘plamga xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishida ishtirok etgan olimlar, o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalarning ma’ruza materiallari kiritilgan. To ‘plamda keltirilgan materiallar nafaqat mutaxassislar, doktorantlar va talabalar uchun, balki keng kitobxonlar uchun ham qiziqarli bo‘ladi.

Tahriryat a’zolari:

Kurbanov B. Sh., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Jabborova D. D., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Gizatulina O. I., katta o‘qituvchi

Taqrizchilar:

Jumanova D. R., filologiya fanlari doktori, professor

Mamatova X. M., pedagogika fanlari doktori, dotsent

Maqolalar mualliflari materiallarning ishonchliligi, keltirilgan faktlar, iqtiboslar va havolalarning to‘g‘riligi uchun mas’uldirlar.

Guliston davlat pedagogika instituti ilmiy kengashi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-792-45-8

Mualliflar jamoasi, 2024

Ziya nashr matbaa XK

4. Жаббарова Д. Д. Организация творческой деятельности учащихся на основе инновационных технологий. Молодой ученый, (10), 2015. – С. 1157-1160.

5. Jabborova D. Formation of students' creativity in the classroom of the Russian language. Linguistics and Culture Review, 5. 2021. – С. 467-477.

ZAMONAVIY TA'LIMNING O'QITISH USULLARI VA ULARNING SAMARASI

Rahmonqulova Kamola Muzaffar qizi, talaba, Guliston davlat pedagogika instituti

Anotatsiya. Texnalogiyalarning rivojlanishi hamda jamiyat ehtiyojlarining almashinib borishi natijasida o'qituvchilardan doimiy ravishda ta'larning sifati va o'quvchilarning faolligini oshirish uchun ta'larning tashkil etish jarayonida yangidan-yangi innovatsion usullardan keng ko'lamda foydalanishi hamda tashkil eta bilish qobiliyati talab qilinmoqda. Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda foydalaniishi mumkin bo'lgan bir qancha zamonaviy ta'lim usullari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim usullari, interaktiv modul, texnalogiya, online platforma, inkluziv ta'lim, gamifikatsiya.

Globallashib borayotgan dunyoda yosh avlodni o'qitish va ta'lim berish asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lim shaxsing kamol topishi hamda jamiyat taraqqiyotining asosiy negizi hisoblanadi. Tez sur'at bilan rivojlanib borayotgan dunyoda zamonaviy texnalogiyalar, o'qitish va o'rganishga bo'lgan yondashuvlarimizning o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu innovatsion usullar qiziqarli va samarali ta'lim shaklini yaratish uchun zamonaviy texnalogiyalar, metodlar, va o'quvchilarga yo'naltirilgan usullardan iboratdir. "Zamonaviy ta'lim usullari" deganda maktabgacha ta'lim tashkiLoti mashg'ulotlarini o'rganish bo'yicha tarbiyalanuvchilarning oldiga qo'yilgan pedagogik muammoni mustaqil yechishga xizmat qiladigan interfaol metodlar ko'zda tutiladi" [1, 961-b.]. Ushbu maqolada XXI asrda eng samarali va foydali bo'lgan bir qancha ta'lim tashkil etishning usullari va ta'lim jarayonini shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydigan ba'zi zamonaviy texnikalar haqida muhokamalar olib boriladi.

Hozirgi kunda omallahib borayotgan va o'z samarasini ko'rsatgan onlayn platformalar ta'larning qulayligi hamda moslashuvchanligini o'zgartirdi. Zamonaviy texnalogiyalar asosida ishga tushirilgan platformalar islatgan joyda va istalgan vaqtida kirish mumkin bo'lgan keng ko'lamli kurslar, interaktiv modular va multimedia resurslarini taqdim etadi. O'quvchilar mustaqil holatda ta'lim olishlari yoki muhokama forumlaridan foydalangan holatda tengdoshlari hamda o'qituvchilar bilan o'zaro fikr-mulohazalar almashtirish imkoniyatiga ega. Onlayn ta'lim platformalari ta'limdagi bir qancha muammolarga yechim hisoblanadi, shular jumlasidan vaqt, joylashuv va narx to'siqlarining olib tashlanishiga sabab

bo‘ladi. Quyida aytilganidek online ta’lim usulining eng katta afzalliklaridan biri bu geografik chegaralarni kesib o‘tishidir. Yuqori sifatli ta’lim olish uchun endilikda talabalar sinf xonasida bo‘lishi talab etilmaydi, shunchaki internet va kompyuter orqali dunyoning istalgan yeridagi nufuzli muassasalar va mashhur olimlari tomonidan taklif qilingan kurslarga yozilish imkoniyatini qo‘lga kiritadilar. Onlayn ta’lim moslachuvchanlikni ta’minlab, o‘quvchilarga o‘z jadvallariga ko‘ra ta’lim olish imkonini yaratadi, ayniqsa ishlaydigan mutaxasislar, ota-onalar va boshqa mashg‘ulotlar bilan band bo‘lgan shaxslar uchun katta imkoniyatdir. Sizga ma’lumki talabalar istalgan vaqtida xoh ertalab, xoh kechasi kurs materiallaridan foydalanishlari va muhokamalarda qatnashgan holatda, o‘z jadvallariga moslashtirib vazifalarni bajarishi mumkin. Bundan tashqari onlayn platformalar o‘quvchilarni jalb qilish hamda sifatni yaxshilash maqsadida multimedia elementlari, interaktiv mashqlar va o‘yin kontentlaridan keng ko‘lamda foydalana olish imkoniyatiga ega. Videoroliklar, viktorinalar, virtual labaratoriylar tashkillashtirillishi natijasida talabalar tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rag‘batlantiradigan dinamik ta’lim tajribalarini o‘zida mujassamlashtirgan. Umumiyligini qilib aytganda onlayn ta’lim usulidan foydalanan ekanmiz, hammamiz uchun yanada inkluziv, innavatsion va o‘zaro xamkorlikdagi bilimlar uchun yo‘l ochamiz. Bundan tashqari hozirda ta’limni tashkil etishda gamifikatsiyalardan keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda va ushbu usul yoshlar o‘rtasida ta’lim sifatining oshishiga sabab bo‘lmoqda. “O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyatga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi” [2].

Ta’limda gamifikatsiya bu ta’lim sifatini yaxshilash uchun o‘yin elementlari hamda mexanikalardan foydalanishdir. Qo‘sishma qiladigan bo‘lsak bu o‘rganishda yanada qiziqarli, rag‘batlantiruvchi va samarali qilish uchun ta’lim sharoitida o‘yin dizayni elementlari va tamoyillariga asoslanib dars tashkil etish sanaladi. Turli xil o‘yinlardan foydalangan holatda tashkil etilgan darsning bir qancha samaralarini ko‘rib chiqamiz. Gamifikatsiyalardan foydalangan holatda tashkillashtirilgan darslardan asosiy maqsad o‘quvchilarni darsga qiziqtira olish hisoblanadi ammo o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, guruh bilan ishlash, ichki mativatsiyaning oshishi, muammolarni hal qilishda kreativ fikrlashga o‘rgatish kabi bir qancha shaxsni rivojlantiruvchi zarur ko‘nikmalarning shakllanishiga yordam beradi va tezkorlik bilan javob berish, fikr mulohazalarini tez va sodda taqdim eta olishga undaydi va natijada o‘quvchilarda muvafaqqiyat hissini uyg‘otadi, bu esa o‘quv jarayonining yanada qiziqarliroq bo‘lishini ta’minlaydi. Quyida aytilganlarga izoh beradigan bo‘lsak gamifikatsiya o‘quvchilarni o‘quv faoliyatida yanada faolroq ishtiroy etishga undaydi.[3]

O‘yin elementlarini joriy qilish natijasida o‘quvchilar diqqatini jamlaydi, material bilan shug‘ullanadi va o‘quv jarayonidan zavqlanadi. Bundan tashqari

o‘yinashtirilgan tizimlarda mukofotlar, yutuqlar va taraqqiyotni kuzatishdan foydalanish o‘quvchilarga maqsadlar qo‘yish, qiyinchiliklarni yengishga intilish uchun ichki mativatsiyani uygo‘tadi. Yana bir muhim va asosiy afzalliklaridan biri bu o‘quvchilarga hamkorlikda ishlashni o‘rgatadi, o‘yinlarga asoslangan ta’lim usuli ko‘p hollarda talabalar o‘rtasida jamoaviy tashkillashtiriladi, bu esa talabalar o‘rtasida hamkorlikda va jamoaviy ishslash qobilyatini shakllanishiga yordam beradi. O‘yinlarning asosiy qismi muloqotni, muammolarni hal etish ko‘niklamalarini va ijtimoiy o‘zaro tasirni rag‘batlantiradi, bиргаликда ishlashni o‘rgatib jamoaviy muvaffaqiyat tuyg‘usini rivojlantiradi.[4]

Gamifikatsiya akademik bilimlardan tashqari keng ko‘lamdagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yorsam beradi, jumladan tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish, vaqt ni boshqarish, ijodkorlik, sabrlilik o‘yinlar o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini baholashlari, va natijalarni yaxshiliashi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlashlari va shunga mos ravishda o‘z strategiyalarini tuzishlari yoki mavjud strategiyallardan birini tanlashlari haqida darhol fikr bildirishni talab qiladi va moslashuvchanlik qobilyatini takomillashtiradi.

Rag‘batlantirishda foydalaniladigan mukofotlar, nishonlar va virtual rag‘batlantirish kabi ijobiy tasir etuvchi mexanizmlar orqali tashkillashtirish o‘quvchilarning bilimlarni yanada tezroq o‘zlashtirishiga va hamda ko‘p sondagi o‘quvchilarni qamrab olishiga sabab bo‘ladi va ta’lim natijalarini ya’ni sifatini oshiradi. Gamifikatsiyada ijodkorlik ham muhim ro‘l o‘ynaydi, turli yechimlarni o‘rganish va yangi g‘oyalari bilan tajriba o‘tqazishni talab qiladigan muammolar taqdim etilishi natijasida ijodkorlik va innovatsionlik rivojlanadi. Umuman olganda talimda gamifikatsiya o‘quvchilarning faolligini, ta’lim sifatini, o‘quv jarayonidan zavqlanishni kuchaytirish uchun kuchli vosita sanaladi va ko‘plab imkoniyatlarni taqdim eta oladi. Aniq o‘quv maqsadlari va puxta o‘ylangan dizayn , mulohazalar bilan tashkillashtirilganda, ushbu usul o‘quvchilarda ijobiy natijasini ko‘rsata oladi.[5]

Shular jumlasidan hozirda dunyo bo‘ylab yana bir omallahib borayotgan ta’lim usullaridan biri bu loyihalashtirilgan ta’lim sanaladi. Bu talabalarga yo‘naltirilgan o‘qitish metadalogiyasi bo‘lib, talabalar uzoq vaqt muddatida loyiha ustida ishlashini o‘z ichiga oladi. Loyihalashtirilgan ta’lim da talabalar amaliy va tajribaviy o‘rganish orqali bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun ko‘pincha turli mavzular bo‘yicha real dunyodagi muammoni chuqur o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Loyihaga asoslangan ta’limning muhim jihatlari va asosiy afzalliklari haqida so‘z yurutilsa, uning bir qancha samaralarini ko‘rishimiz mumkin. Shular jumlasidan, ushbu ta’lim usulida talabalar savollar berish, tadqiqot o‘tqazish va murakkab muammolarni hal qilish yo‘llarini o‘rganish orqali so‘rovga asoslangan ta’lim usulidan ham foydalanishadi. Bundan tashqari talabalar loyiha davomida axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash va qaror qabul qilishda tanqidiy fikrlash qobilyatini rivojlantiradilar. Loyihaga asoslangan ta’lim

o‘quvchilarni murakkab muammolarni hal qilish uchun bilim va ko‘nikmalarini qo‘llashni talab qiladigan real loyihalarga jalb etadi va ular ustida olib boriladi. Talabalar hamkorlikda ishlashi talab qilinadi hamda tadqiqot ishlari olib borilgan holatda natijalar guruuhlar tomonidan taqdim etiladi. Loyihaga asoslangan ta’lim usuli tanqidiy fikrlash, muloqot va jamoada ishlash ko‘znikmallarini rivojlantiradi. Va bu usul qiziquvchanlik, ijodkorlik kabi qobilyatlarni shakllantirib talabalarni zamonaviy ishchi kuchining qiyinchiliklariga tayyorlaydi. “Axborot texnologiyalari ta’limni amalga oshish jarayonida hayot bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi”[6].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamonaviy ta’lim usullari butun dunyo bo‘ylab XXI asr o‘qitish va o‘rganish uslublarini rivojlantirib, o‘zgartirib bormoqda. Quyida bayon qilingan ta’lim usullari yordamida o‘quvchilar tez sur’atda o‘zgarib borayotgan dunyoda muvaaffaqiyat qozonish imkonini beradigan dinamik hamda inkluziv ta’lim muhitini yaratishi mumkin Biz yangi peadagogik usullar va metodlarni o‘rganar ekanmiz, va zamonaviy texnologiyalarga asoslanib o‘quv darslarini tashkil etarkanmiz, ushbu ta’lim usullari butun dunyo bo‘ylab talabalar o‘rtasida ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va akademik ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ulkan hissasini qo‘shib boradi.

Adabiyotlar

1. “Academic research in educational sciences” journal by Hilola Shakirova.
2. Darling-Hammond L., Flook L., Cook-Harvey C., Barron B. & Osher D. Implications for educational practice of the science of learning and development. *Applied Developmental Science*, 24(2). 2019. – P. 97-140.
3. Hattie J. & Donoghue G. Learning strategies: A synthesis and conceptual model. *npj Science of Learning*. 1(1). 2016. N. 16013.
4. Mayer R. E. (2014). Cognitive theory of multimedia learning. *The Cambridge Handbook of Multimedia Learning*, 2nd Edition. – P. 43-71.
5. Puentedura R. R. (2014). SAMR: A contextualized introduction. Retrieved from http://hippasus.com/resources/sweden2014/SAMR_ContextualizedIntroduction.pdf
6. Rose D. H. & Meyer A. Teaching every student in the digital age: Universal design for learning. ASCD. 2002.
7. Slavin R. E. Educational psychology: Theory and practice. Pearson. 2014.
8. Tomlinson C. A. How to differentiate instruction in academically diverse classrooms. ASCD. 2017.